

**DINIY OG'ISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK HODISA SIFATIDA
NAMOYON BO'LISH XUSUSIYATLARI**

O'rinboyev Humoyun Iftixor¹

¹ xususiy maktabi psixolog

**MAQOLA
MA'LUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 12.10.2024

Revised: 13.10.2024

Accepted: 14.10.2024

Diniy og'ish muammosini tahlil qilish jarayonida uni ijtimoiy hodisa sifatida turli xil tazda namoyon bo'lishini kuzatishimiz mumkin. Masalan, diniy aqidaparastlik, mutaasiblik, fanatizm, fundamentalizm. Bu fenomenlar diniy og'ishishning turli shakllarini namoyon qiladi.

KALIT SO'ZLAR:

Ma'lumki, diniy fanatizm nafaqat diniy najotga erishish uchun diniy amaliyotda qo'llanilishi mumkin, balki ijtimoiy manipulyatsiya, siyosiy bosim vositasi bo'lib xizmat qilishi ham mumkin.

KIRISH. Diniy og'ish muammosini tahlil qilish jarayonida uni ijtimoiy hodisa sifatida turli xil tazda namoyon bo'lishini kuzatishimiz mumkin. Masalan, diniy aqidaparastlik, mutaasiblik, fanatizm, fundamentalizm. Bu fenomenlar diniy og'ishishning turli shakllarini namoyon qiladi. Ma'lumki, diniy fanatizm nafaqat diniy najotga erishish uchun diniy amaliyotda qo'llanilishi mumkin, balki ijtimoiy manipulyatsiya, siyosiy bosim vositasi bo'lib xizmat qilishi ham mumkin. Diniy aqidaparastlik fenomenining ulkan salohiyati tufayli uni zamonaviy sharoitda amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari terrorizm, ekstremizm, fundamentalizm, "yangi diniy oqimlar" kabi hodisalar bilan bog'liq. Quyida diniy aqidaparastlik, fanatizm, fundamentlaizm va boshqa hodisalar o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqishga harakat qilganmiz.

Ilmiy adabiyotlarda ekstremizm ijtimoiy hodisasi sifatida siyosat va dinda ekstremal qarashlar va choralarga rioya qilishni tushunish odat tusiga kirgan. Shu asosda bir qator tadqiqotchilar diniy aqidaparastlik tushunchasini diniy ekstremizm bilan bog'laydi.

Ushbu yondashuv doirasida diniy ekstremistlar va mutaassiblar deganda "alohida konfessiyalar ichidagi konservativ va mutaassib doiralar" tushuniladi, diniy ekstremizm esa "haddan tashqari diniy g'ayrat, qonunlarni buzish, hokimiyatga bo'y sunmaslikda namoyon bo'ladi. Undan tashqari dindorlar va dindor bo'lmanan boshqa toifa vakillari o'rtasida qasddan ziddiyat yaratish, dindoshlarini ularning muhitidan maksimal darajada ajratib olishga intilish, diniy aqidaparastlik va tajovuzkorlikni qo'zg'atishdan iborat.¹⁰⁸

Ekstremizmning mohiyatini ana shunday tushunish munosabati bilan "ekstremistik din" tushunchasi shakllandi. "Ekstremistik dinlar"ni farqlash mezoni ma'lum bir dinda faol apokaliptizm tushunchasining mavjudligi bo'lib, u diniy aqidaparastlarning esxatologik kayfiyatining ijtimoiy faoliyat sohasiga o'tishidan iborat.

Bunday holda, esxatologik g'oyalar dunyoning oxiri va Qiyomat boshlanishini tezlashtirishga intiladigan diniy aqidaparastlarning ekstremistik, terroristik faoliyatiga aylanadi. "Ekstremistik dinlar" hodisasini B.I.Galperin, V.N.Arestov, A.N.Mitroxin kabi tadqiqotchilar ajratib ko'rsatadilar. Diniy ekstremizm va diniy aqidaparastlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik muammosiga kelsak, biz E.G. Filimonov asarlarida izchil ifodalangan yondashuvni ko'rishimiz mumkin.

Ushbu yondashuv doirasida ekstremizm va diniy aqidaparastlik tushunchalari ushbu hodisalarning namoyon bo'lishiga ko'ra qarama-qarshi qutblarga ajratiladi. Shunday qilib, ekstremizm siyosiy muammolarni hal qilish usuli bo'lsa, diniy aqidaparastlik, birinchi navbatda, ruhiy najot topish muammosini hal qilishga qaratilgan.

Ushbu yondashuv doirasida diniy aqidaparastlik va ekstremizmning tahlili dinni siyosiylashtirish jarayonining kuchayishi bilan bog'liq istisno holdir. E.G.Filimonovning qayd etishicha, diniy aqidaparastlik va ekstremistik holatlar ayni bir xil hodisa deb hisoblanilmaydi. E.G.Filimonovning fikricha, diniy ekstremizmni diniy sektantlar bilan ham bir xil deb hisoblash noto'g'ri. "Diniy aqidaparastlik" va "ekstremizm" atamalari bilan

¹⁰⁸ Гальперин Б.И. Религиозный экстремизм: Кто есть кто. Б.И. Гальперин. — Киев: Политиздат Украины, 1989. — С. 8.

ishlashda diniy syujetlar, g'oyalar va shiorlarning o'ziga xos siyosiy mazmunini, shuningdek, ayrim siyosiy harakatlarning diniy asosini hisobga olish zarur.¹⁰⁹

Hozirgi siyosiy vaziyatda diniy aqidaparastlik fenomeni nafaqat ekstremizm fenomeni, balki fundamentalizm fenomeni bilan ham ajralib turadi, uning mohiyati “ma'lum maqsadlarga erishish yo'lidagi so'nmas ishonch hamda shiddatli va ehtirosli harakatlarning namoyon bo'lishi” deb ta'riflanadi. Bizning fikrimizcha, bunday qiyoslash nisbiy xarakterga ega bo'lishi mumkin, chunki diniy aqidaparastlik din sohasida nafaqat diniy fundamentalistlar, balki diniy modernistlar tomonidan ham qo'llaniladi. Bizningcha, fundamentalizmda diniy aqidaparastlik, eng avvalo, himoya vazifasini, diniy modernizmda esa madaniy-ijodiy vazifani bajaradi. Zamonaviy sharoitda, mavjud diniy aqidaparastlikdan terroristik harakatlar orqali siyosiy muammolarni hal qilish vositasi sifatida foydalanish tendentsiyasi ortib bormoqda.

Shunday qilib, dinni siyosiylashtirish jarayoni diniy aqidaparastlikdan foydalangan holda dastlab eksrtimizmga, so'ngra terrorizmga aylanadi. Bizning fikrimizcha, bu tendentsiya, birinchi navbatda, zamonaviy sivilizatsiyaning yuqori texnik darajasiga bog'liq; ikkinchidan, jamiyat tuzilishning ochiq va demokratik shakli; uchinchidan, ratsionalizatsiyaning umummadaniy jarayonidir.

Noto'g'ri aqidaga ergashgan odamning e'tiqodi buziladi. Ekstrimistlar shaxsiyatida ham bu jarayonni kuzatishimiz mumkin. Aqidaparastlik (aqida - arabcha, ishonch) muayyan sharoitda, biron-bir tamoyilga qat'iy ishonch va uni mutloqlashtirish asosida ongida shakllangan qoida va tartiblarni hamda ularni sharoit, holat, vaziyatni hisobga olmagan holda ko'r-ko'rona qo'llashga urinishni anglatadi. Aqidaparastlik diniy ekstrimizmga zamin hozirlaydi. Bundan tashqari ekstrimizm so'zi bilan ma'noviy jihatdan bo'gliq bo'lgan bir qancha tushunchalar ham bor, quyida ularga to'xtalib o'tamiz.

Masalan, diniy fundamentalizm va diniy mutaassiblik ekstrimist shaxs shakllanishida muhim omil hisoblanadi. Diniy fundamentalizm diniy aqidalarni o'zgartirishga qarshi bo'lib, diniy manbalarni talqin va tahlil etilishiga murosasiz kurashadilar, aqliy omillar asosidagi fikrlardan diniy e'tiqodni ustun qo'yadilar.

Mutaassiblik harakatlarining tub ildizi bu so'z paydo bo'lmasdan ancha avval turli xil ko'rinishlarda sodir bo'lgan va hozirgi kunga qadar butun olamga o'zining aks ta'sirini sezdirib kelmoqda. Mutaasiblik insoniyatning doimiy hamrohi. Mutaasiblik g'oyasi Eski

¹⁰⁹ Филимонов Э.Г. Социальная и идеологическая сущность религиозного экстремизма Э.Г.Филимонов — М., 1983. — С. 6-7.

Ahdda bayon qilingan va terrorizmning tarixdagi birinchi yorqin namoyonlaridan biri Yahudiyada Rim ekspansiyasiga qarshi insonlarning shijoatli, egressiv va ehtrisoli qo'zg'oloni edi hamda bu qo'zg'olon diniy bayroq ostida - yahudiy monoteizmining Rim davlati butparastligiga qarshi chiqishi bilan ro'y bergan bo'lsada, qo'zg'olonning haqiqiy asosi siyosiy qo'llab-quvvatlash, Rim ekspansiyasining hokimiyatni egallab olishi, bosib olingan xalqlarning og'ir turmush tarzi edi. Diniy shiorlar birlashtiruvchi markazga aylandi, bu "yahudiy qo'zg'olonchilarini nafaqat o'limdan qo'rmaslikka, balki uni jang maydonida ham shojoat bilan jang qilishga majbur qilgan, odamlar birovning buyrug'i bilan emas, balki, o'zları istab janga chiqishgan.".

Bu holatni hatto Tomas Akvinskiy va nasroniy cherkovining otalari ham, ularning fikriga ko'ra, odamlarga dushman bo'lган hukmdorni o'ldirish g'oyasini tan olishgan. 1848 yilda nemis radikal vakili Karl Xayntsgen qotillikni taqiqlash siyosiy kurashda qo'llanilishi mumkin emasligini va yuzlab, minglab odamlarning jismoniy yo'q qilinishi "insoniyatning eng yuqori manfaatlari" asosida oqlanishi mumkinligini ta'kidladi. Geyntsgen ma'lum darajada zamonaviy terrorizm nazariyasining asoschisi bo'lган. U reaktsion kuchlarning qudrati va intizomiga qarshi qurollar bilan kuraishish kerak va bunda zaharli gaz, raketalar, yangi yo'q qilish vositalaridan foydalanish taklifini berdi. Bu 19-asrda paydo bo'lган "bomba falsafasi" deb nomlangan.

Endi ushbu holatlarni islom dini niqobi ostida faoliyat yuritayotgan turli guruh vakillari misolida ko'rib chiqamiz. ularning faoliyatida diniy aqidaparastlik, mutaassiblik, fanatizm, fundamentalizm va boshqa tushunchalar qanday namoyon bo'lishi haqida gaplashamiz.

Avvalo, diniy aqidaparastlikdan siyosiy kurash quroli sifatida islom fundamentalizmi va "vahhobiylik" misolida zamonaviy sharoitda namoyon bo'lishini ko'rib o'tsak. Fundamentalistik va "vahhobiylik" tushunchalarining asosiy motivi "haqiqiy islomni qayta tiklash", o'zining asl "pokligi"ga qaytish g'oyasi orqali muayyan siyosiy muammolarni hal qilishdir. Islom taraqqiyoti tarixida faqatgina Muhammad payg'ambar davridagi islom yagona va haq g'oya edi, deb ergashuvchi bir qator tarafedorlar paydo bo'ldi. Ular "as-salaf as-solihi" (solih ajdodlar) obraqi har bir musulmon amal qilishi lozim bo'lган me'yordir, deb belgilashgan.

Fundamentalizm va "vahhobiylik" ham alohida fenomenal jarayondir. Islom fundamentalizmi va "vahhobiylik" o'rtasidagi tub farq aqidaviy xususiyatga ega; fundamentalistlar VII asrdagi islomni, an'analarni, o'sha davrga xos bo'lган hayot tarzini saqlab qolish va shu bo'yicha yashash pozitsiyasida turishadi;

“Vahhobiylar” esa Muqaddas Kitobga nafrat ko’zi bilan qarashadi. Islom ulamolari ta’kidlaganidek, zamonaviy “vahhobiylilik” sezilarli darajada o‘zgargan asl vahhobiylilik (milodiy 8-asrda Ahmad bin Hanbalu tomonidan asos solingan) bilan solishtirganda, u sunniylarning bir shakli edi¹¹⁰. Zamonaviy “vahhobiylilik” Qur’on va sunnat qoidalarini tanlab, “vahhobiylilik” g’oyalariga moslashtirish natijasidir. Agar an’anaviy islomda ulamolarning vazifasi Alloh odamlarga aniq nima deganini tushuntirish bo’lsa, “vahhobiylar”ning vazifasi o’z fikrlarini tasdiqlash uchun Qur’on va Sunnatdan foydalanishdir.

Zamonaviy “vahhobiylilik”ning o’ziga xosligi shundaki, u “haqiqiy” islom dunyosining o’ziga xos modelini ishlab chiqdi, shuning uchun “vahhobiylilik” atamasi zamonaviy sharoitda ba’zi diniy-siyosiy guruhlarning nomi sifatida ishlatiladi (Checheniston, Dog’iston). “Haqiqiy” musulmonning o’zini tutish modeli va uslubining mohiyati “kofirlarga” qarshi qurolli “jihod” ko’rinshida namoyon bo’ladi. “Kofirlar” “vahhobiylar” nuqtai nazaridan ateistlar, nasroniylar, yahudiylardir. Bundan tashqari, “kofir” tushunchasi qat’iy “tavhid” tushunchasi bilan bog’liq: faqat Alloh Xudodir, Allohning payg’ambari Muhammadga murojaat qilish dindan chiqish deb hisoblanadi.

Shu tarzda o’zgartirilgan “jihod” g’oyasi “takfir” g’oyasi bilan to’ldiriladi, ya’ni “kofirlar”ga bo’ysunadigan, “kofirlar” bilan muloqot qiladigan, vahhobiylarning “jihod” g’oyasiga qo’shilmagan musulmonlarni “kofir” deb e’lon qilish. Bunday holda, “takfir” g’oyasi diniy ongning hukmronligi bo’lib, u diniy aqidaparastlik usulini faol apokaliptizm orqali amalga oshirish uchun nazariy asos bo’lib xizmat qiladi. “Takfir” g’oyasi diniy asosli terroristik harakatlar (Isroil, Indoneziya, Filippin, Checheniston, Nyu-York (2001 yil 11 sentyabr), Moskva (2003 yil 23-26 oktyabr) orqali siyosiy maqsadlarga erishgan “shahid”lar tomonidan ham amalga oshiriladi.

“Shahid” hodisasiga nisbatan, xuddi “vahhobiylilik” hodisasida yuz bergani kabi hozirgi sharoitda ma’lum o’zgarishlarga uchramoqda va asl ma’nisdan uzoqlashish jarayoni sifatida namoyon bo’lmoqda. Demak, “shahid” tushunchasi “guvohlik” degan ma’noni bildiradi. Alloh va musulmonlar dushmanlari bilan jangda halok bo’lgan jangchini ilk islomda shahid deb atalgan. Shahid jangda kofirlar qo’lida o’lib, iymonini tasdiqlaydi. Unga qabrdagi sinovlarni chetlab o’tib, jannat va’da qilingan. “Shahid” tushunchasi e’tiqod nuqtai nazaridan shahidlik kultidan kelib chiqqan.

¹¹⁰ Игнатенко А.А. Правоверность, доказываемая ненавистью: Ваххабизм в изложении его сторонников А.А. Игнатенко Независимая газета. - 2001. — 14 сент. — С.11.

Islom tarixi davomida bu kult an'anaviy ravishda diniy ongda mustahkamlanib kelgan. Binobarin, mo'min-musulmonlar shahid bo'lish sharafiga muyassar bo'lish istagida bo'lganlar. Xususan, shahidlik ruhi musulmon qo'shinlarining jangovar qobiliyatini oshirgan. Zamonaviy "shahidlar"ning terrorchilik faoliyati bu tushunchaning vatanparvarlik ma'nosini manipulyatsiya qilishga asoslangan. A.Kudryavtsev ta'kidlaganidek, "qator musulmon dinshunoslari shahidlik hodisasini tushuntirishda diniy an'analarga asoslanib, tinch aholiga emas, balki harbiy dushmanha qarshi hujumlarini oqlaydilar"¹¹¹.

Shunday qilib, zamonaviy sharoitda terroristik guruhlar an'anaviy islomning eng muhim jihatlaridan birini o'ziga xos tarzda suiiste'mol qilmoqda. Jumladan, "Al-Qoida" hujjatlaridan birida quyidagi dominant shakllangan: "bid'atchilarni yo'q qilish ikki yo'ldan biri bilan amalga oshiriladi: Allohning bevosita aralashuvi yoki shariat qonunlariga rioya qiluvchi musulmonlar yordami bilan. Alloh ularni quvib yetadi. Qurolli "jihod" mafkurachilarining fikricha, missionerlik faol diniy xizmat yo'li orqaligina erishib bo'lmaydi, chunki missionerlik va va'zlarda islomni qabul qilishga da'vat bor, lekin ularda jazolash jarayoni yo'q.

"Bizning qo'limizda bo'lган yagona jazo", - bu jihot, deb ta'kidlaydi zamonaviy "diniy" guruhlar. Diniy aqidaparastlikning zamonaviy sharoitda namoyon bo'lishining o'ziga xosligi, bizningcha, vijdon erkinligi va diniy bag'rikenglik tamoyillarini hayotga tatbiq etish jarayoni bilan ham bog'liq. Eng ko'p "noan'anaviy dinlar" 20-asrning ikkinchi yarmida AQShda shakllangan. Rossiyada G'arbg'a asoslangan "yangi diniy oqimlar" 80-yillarning ikkinchi yarmida keng tarqaldi. Taxminan shu davrga kelib "noan'anaviy rus dinlari" ham shakllangan. Diniy aqidaparastlik ushbu oqimlarning har birida diniy ongni manipulyatsiya qilish vositasi sifatida ishlatiladi, ammo ba'zi hollarda diniy aqidaparastlik diniy guruh ichidagi e'tiqod darajasi muammosini hal qilishga, boshqalarida buzg'unchi tendentsiyalarni amalga oshirishga qaratilgan.

Fikrimizcha, "yangi diniy oqimlar" diniy aqidaparastligining o'ziga xosligi, avvalo, bu diniy oqimlarning yet madaniy muhitda ildiz otishi zarurati bilan bog'liq. Bunda diniy aqidaparastlikdan usul sifatida foydalanish muayyan diniy guruhnинг ijtimoiy mavqeい muammosini hal qilishga qaratilgan, shuning uchun bu yerda diniy aqidaparastlik, qoida tariqasida, missionerlik faoliyatini kuchaytirish orqali amalga oshiriladi. Dindorlarning apokaliptik his-tuyg'ulari esxatologik kutish shaklida bo'ladi ("Iegova shohidlari", "Yettinchi kun adventistlari", "Birlashtirish cherkovi" va boshqalar), diniy fanatizm diniy jo'shqinlik sifatida talqin etiladi.

¹¹¹ Ц.А.Дмитриев Шахиды на русской земле Н Г-религии. - 2002. - М - С . 2.

Diniy ishtiyoqga asoslanadigan va faol missionerlik faoliyati shaklida amalga oshiriladigan “yangi diniy oqimlarning” diniy fanatizmi nafaqat yangi diniy tuzilmalarning ijtimoiy mavqeい muammosini hal qiladi, balki zamonaviy jamiyatda dinga bo’lgan qiziqishni oshirish muammosini ham hal qilishga imkon beradi. Madaniyatda yangi diniy shakllanish jarayoni vaqtı-vaqtı bilan takrorlanib turgani uchun E.Fromm “yangi diniy oqimlar”ning oxirgi sifati haqida quyidagilarni yozgan: Diniy aqidaparastlikning kuchli namoyon bo’lishi dindorlikning yo’qolishiga reaktsiya sifatida, diniy hayotni qayta tiklash istagi sifatida paydo bo’ladi va iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik holatiga ko’ra birinchi nasroniyatlarni eslatuvchi guruhlarga xos bo’lgan xususiyatlarda namoyon bo’ladi¹¹².

Faol missionerlik faoliyati bilan bir qatorda, “yangi diniy harakatlar” dunyodan “ozod bo’lish” ta’limotini amalga oshirish uchun diniy aqidaparastlikdan foydalanadi yoki dunyoviy ishlardan chetlangan holda diniy hayot tarziga o’tish maqsadida yoki bo’lmasam, diniy o’z joniga qasd qilishni oqlash va amalga oshirish uchun ushbu harakatlarni amalga oshiradilar. Guruhning diniy ta’limotiga qarab, ayrim “yangi diniy oqimlarda” diniy aqidaparastlik faol apokaliptizm orqali amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, diniy og‘ish muammosining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik jihatlari o’rganilish uchun muhim obyekt hisoblanadi. Soha tomonidan olib qaralganda, ushbu fenomen insonlarningning dinni turli nuqtai nazar orqali tushunishi va qabul qilishi natijasida talqini o‘zgarib boryapti.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Гальперин Б.И. Религиозный экстремизм: Кто есть кто. Б.И. Гальперин. — Киев: Политиздат Украины, 1989. — С. 8.
2. Филимонов Э.Г. Социальная и идеологическая сущность религиозного экстремизма Э.Г.Филимонов — М., 1983. — С. 6-7.
3. Игнатенко А.А. Правоверность, доказываемая ненавистью: Ваххабизм в изложении его сторонников А.А. Игнатенко Независимая газета. - 2001. — 14 сент. — С.11.
4. Ц.А.Дмитриев Шахиды на русской земле Н Г-религии. - 2002. - М - С . 2.
5. Фромм Э. Догмат о Христе Э . Фромм. - М.: АСТ, Олимп, 1998. - С. 215.
6. А.В.Жуков Церковь Объединения: вероучение, идеологиям практика: Автореф.-Спб, 1995. - С.15.

¹¹² Фромм Э. Догмат о Христе Э . Фромм. - М.: АСТ, Олимп, 1998. - С. 215.